



## ALISHER NAVOIY ASARLARINING HOZIRGI ZAMON YOSHLARI TARBIYASIDAGI AHAMYATI

**Qayumova Risolatxon Otaxonovna**

*Namangan viloyati Yangi namangan tumani*

*65-sonli maktabning ona tili va adabiotot fani o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola orqali muallif buyuk mutafakkir , g`azal mulkining sultoni Mir Alisher Navoiyning ijod yo`li hozirgi kundagi yoshlarning hayoti va ularning tarbiyasidagi tutgan ahamyati xaqida so`z yuritgan. Shu bilan birga milliy me`rosimizning hozirgi kun yoshlari tomonidan zamonaviy talqini asosini ko`rishingiz mumkin .*

**Kalit so`zlar:** *induksiya, deduksiya, milliy madaniy meros, mutolaa, g`azal.....*

She`riyat mulkining sultoni Nizomiddin Mir Alisher G`iyosiddin Bahodir o`g`li «Navoiy taxallusi bilan o`zbek adabiyotining yangi davrda yuqori bosqich sari olib chiqqan, O`rta Osiyo Uyg`onish davrining yorqin vakili, ulug` mutafakkiri sifatida tarix zarvaraqlaridan joy olgan favqulodda shaxsdir. Shoir yashagan davr XV-XVI asrlar Markaziy Osiyoda Uyg`onish davrining so`ngi pallasi bo`ldi. Navoiy yashagan davrni buyuk sohibqiron Amir Temur va boshqa temuriy sultonlarning faoliyatidan ayri holda yoritib bo`lmaydi. Zero, Alisher Navoiy yashagan zamonda mamlakatda tinchlikosoyishtalik va farovonlik hukm surishida, madaniyat, ilm-fan va san`atning rivoj topishida temuriyzodalarning o`rni beqiyos. XIV asr 70-yillaridan mintaqa siyosiy hayotida mo`g`ullar hukmronligi tugab, Temuriylar davri boshlandi. Buyuk Sohibqiron Amir Temur tanazzulga yuz tutgan va parchalangan Chig`atoy ulusining o`rnida islom mintaqasining markaziy qismini o`z hududiga birlashtirgan ulug` saltanatni vujudga keltirdi. G`arbda Iroq va Suriya yerlari, Eron, Afg`oniston va Markaziy Osiyo o`lkalarini deyarli to`liq qamrab olgan bu mamlakat islom mintaqa xalqlariningyagona siyosiy hududga oxirgi marta birlashuvi bo`lib, Temur mintaqa miqyosida nufuzga ega bo`lgan oxirgi davlat boshlig`i edi. Uning davlatni boshqarish va ulus osoyishtaligini ta`minlash yo`lidagi xizmatlari islom mintaqa madaniyati davlatchilik sohasidagi yutuqlarining yuqori cho`qqisi bo`ldi.ma`lumotlari.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida ilk ma`lumot beruvchi manba bu shubhasiz ulug` shoirning o`z asarlaridir. Shoir garchi o`z tarjimai holini maxsus yozib qoldirmagan bo`lsa-da, lekin Navoiyning deyarli barcha asarlarida uning shaxsiyati, ijodiy va ijtimoiy faoliyati haqida muayyan fikrlar keltiriladi. Xususan, “Vaqfiya”, “Munshaot” asarlarida ulug` shoirning ijtimoiy faoliyati aks etsa, «Majolis-un-nafois», «Xamsa», «Munojot», «Xazoyinu-l-maoniy» kabi asarlarida shaxsiy hayoti, «Muhokamatu-l-lug`atayn», «Xamsatu-l-mutahayyirin, «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» kabi asarlarida shoir qalamiga mansub ba`zi asarlarning yozilish tarixi bilan bog`liq ma`lumotlarni uchratish mumkin. Husayn Boyqaroning «Risolasida ham hazrat Navoiyning turkiy tildagi ijodi, xususan, she`riyati hamda «Xamsa» asariga yuksak baho berilib, buyuk shoir «so`z mulkining kishvaristoni, sohibqironi», deb ulug`lanadi. G`iyosiddin Humomiddin Xondamirning



«Xulosatu-laxbor» va «Habibu-s-siyar» asarlarida Husayn Boyqaroning Xuroson taxtiga o‘tirishi va Alisher Navoiyning Hirotga qaytishidan boshlab, ulug‘ shoirning vafot etishigacha bo‘lgan davr oralig‘idagi voqealar bayon qilinadi. Tarixchining «Makorimul-axloq» asari esa Navoiyning yuksak axloqiga bag‘ishlangan maxsus risola bo‘lib, shoir tarjimai holiga doir muhim faktik ma‘lumotlarning keltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Alisherning tog‘alari Mirsaid Kobuliy va Muhammad Ali G‘aribiyalar ham shoir bo‘lishgan. Bo‘lajak shoir ana shunday muhitda, alohida tarbiya va nazoratda o‘sadi. Kichiklik chog‘idan o‘z davrining mashhur olimu fozillari davrasida bo‘ladi. Bu Navoiy ijodiga ta’sir etgan eng asosiy birlamchi, ijodiy faoliyatni yuzaga kelishiga turki bergan omil sifatida e’tirof etiladi. 1445 yilda maktabga borgan va yosh Husayn bilan birga o‘qigan.

Navoiyning komil inson ta’limoti negizini tabiat, inson va Allohga bo‘lgan muhabbat belgilaydi. U payg‘ambarlar, aziz avliyolar, piru komillar, orifu so‘fiylar to‘g‘risida so‘z yuritganda, g‘azal va ruboiylarida tabarruk zotlarning xislatu fazilatlarini haqida ishqmuhabbat bilan yozgan. Mutafakkir payg‘ambarlar, avliyo va oriflarni, yirik karomat sohiblarini komil insonlar qatoriga qo‘shadi. Bunday zotlar doimo xalq g‘amida yashaydilar, atrofda qilarga mehr-muruvvat ko‘rsatib, bevabechoralarga yordam beradilar. Barkamol zotlar insonlarning eng a’loisi bo‘lib, butun umr poklanish va Haq yo‘lini ixtiyor qilgan kishilardir. Ulug‘ mutafakkirning «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» dostonida ham tasavvuf ta’limoti nuqtai nazaridan badiiy timsollarni talqin qilish muhim o‘rin egallaydi. Dostonda Farhod va Shirin, Layli va Majnun o‘rtasidagi sevgi-muhabbat majoziy ishq, ya’ni Shirin, Layli va Majnun siymosida Allohga bo‘lgan ishq bir-biri bilan bog‘lanib ketgan. Unda zohiriylisiz ilohiy ishqqa, dunyoviyliksiz Haqqa yetishib bo‘lmasligi to‘g‘risida fikr yotadi. Navoiy nazarida insonni sharaflovchi jamiki fazilatlarini komil inson g‘oyasini ustuvor jihatlari deb kiritish mumkin. Ammo bular orasida u imon, qanoat, saxovat, ilm-ma’rifat, vafo, himmat, xoksorlik, adolat, adab kabi sifatlarini ajratib olib, qariyb hamma asarlarida qayta-qayta turli voqealar tasviri munosabati bilan ta’kidlab o‘tgan. Bu sifatlar nainki odamni ulug‘vor, fozil va mo‘tabar etadi, balki Ilohga yaqinlashtiradi, ilohiy xislatlarga moyil qiladi, deydi ulug‘ mutafakkir. Bu axloqiy talablar Navoiy davri mafkurasidan kelib chiqadi, aniqrog‘i asrlar davomida ishlangan, qoidaga kiritilgan, ta’lim-tarbiyaga singdirilgan g‘oyalardir. Ta’kidlash kerakki, Alisher Navoiy asarlarining ustuvor tamoyillari haqida yakuniy so‘z sifatida shuni aytish mumkinki, Navoiy merosining yosh avlod tarbiyasida, bugungi kunni barkamol insoni sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: birinchidan, Navoiy nazarida komil inson, ya’ni har qanday kamchilik va nuqsonlardan xoli bo‘lgan barkamol shaxs hayoliy bir timsol emas, balki o‘zida butun zohiriy va botiniy bilimlarni, insoniy fazilatlarini mujassam etgan real hayotda bor kishi. Ikkinchidan axloqiy poklik, nafsni tiyish, jabr-zulm, adolatsizlik, haqsizlik singari hayot qiyinchiliklariga qarshi kurashish Farhod insonparvarligining o‘zagini tashkil qiladi va komil inson sifatida shakllanishining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so‘z bilan ham, ko‘ngil bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi, xalq manfaatini o‘ylaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy inson deb biladi. Kishilar g‘amida bo‘lish, yaxshilik qilish, muruvvat ko‘rsatish bu buyuk zot hayotining mazmuni bo‘lgan. Uning qabrida shunday so‘zlar bitilgan: «Shohi g‘aribon», ya’ni g‘ariblar,



yolgʻizlar, faqirlar shohi. Navoiy sahovat va muruvvatda benazir inson boʻlgan. Oʻzining joylardagi yersuvlari, mol-mulklaridan kelgan daromadlarini toʻlaligicha xayriya ishlariga sarflagan. Hazrat Navoiy saxiylikni insonparvarlik va komillikning muhim xislati deb biladi. Odamiylik insonni inson qiladigan, uni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan nodir fazilatdir. Navoiy asarlarida chinakam insonparvar, mard va qahramon yigit sifatida «Farhod va Shirin» dostonidagi Farhod obrazini koʻrsatadi. Ilm-fan bilan bolalikdan qiziqib kelgan Farhodni oʻz davridagi barcha hunarlarni oʻrganganligi, robotlar sistemasini yovuz kuchlarga qarshi qurol sifatida foydalanishi bugungi kun yoshlariga ham ayni damda amalga oshirishi kerak boʻlgan ishlarini belgilab beradi. Oʻzbek milliy anʼanalariga koʻra dardmandlarga malham topish, ojizlar va kambagʻallarning koʻnglini koʻtarish, yetimlar va beva ayollarga yordam, rahmshavqat qilish insoniylik jihatidan burchdir. Shoir bu haqda quyidagi misralarni yozgan: «Kimki bir koʻngli buzugʻning xotirin yod aylagay, Oncha borkim, Kaʻba vayron boʻlsa obod aylagay. Demakki, bir muhtojning, noiloj, chorasiz qolgan odamning koʻnglini koʻtarish, dardiga malham topish savoblik darajasi jihatidan vayron boʻlgan Kaʻbani qayta tiklashdan afzaldir. Vatanparvarlik insonparvarlik tushunchachi bilan hamohangdir. Milliy mustaqillik halqimizda, ayniqsa, oʻsib kelayotgan yosh barkamol avlodimizda vatanparvarlik tuygʻularining tiklanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Shoirlarimiz Vatanni inson hayotining maʼno-mazmunini belgilaydigan qadriyat deb bilgan. Har ne boʻlsa ham oʻz vataniga sodiq qolish gʻoyasi hozirgi kun uchun ham dolzarb masala hisoblanadi. «Odam savdosi deb atalmish girdobning qurboniga aylangan insonlar soni tobora koʻpayib bormoqda. Undan tashqari hozirgi kunda oʻzlarining gʻarazli va jirkanch niyatlarini amalga oshirish maqsadida yurtimizga har-xil yoʻllar bilan kirib kelayotgan, mustaqil dunyoqarashi shakllanib ulgurmagani yoshlarimizni qalbi va ongini qandaydir zararli va buzgʻunchi gʻoyalar bilan egallashga harakat qilayotgan yovuz kuchlarga qarshi kurasha olish va oʻz yurtini gʻanimlardan himoya qilish vatanparvar insonlar uddalay oladigan topshiriqdir. Muxtasar qilib aytganda, mutafakkir maʼnaviy merosining yosh avlodni gʻoyaviy tarbiyasida tutgan oʻrni, inson tarbiyasi bilan bogʻliq oʻgʻitnasihatlari, fikr-mulohazalari, talab-koʻrsatmalari, orzu-istaklarini bir yerga jamlab, ularni tartib bilan joylashtirib chiqsa, insoniy kamolotga erishish yoʻllari koʻrsatilgan oʻziga xos nazmiy dastur, qoʻllanma vujudga keladi. Navoiy asarlarining gʻoyaviy tarbiyadagi oʻrnini oʻrganar ekanmiz, gʻoyaviy tarbiyaning muhim vositasi boʻlgan adabiyotning naqadar buyuk kuch va katta ahamiyatga ega ekanligini koʻrishimiz mumkin boʻladi!..

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Komilov N. Xizir chashmasi. T. 2005, «Manaviyat» nashriyoti.
2. Komilov N. Tasavvuf. T. 2009, «Mavoraunnahr» nashriyoti.
3. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. T. 2007, «Fan» nashriyoti.